ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

MAKTABGACHA TA'LIM O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

Termiz Davlat Pedagogika instituti talabasi
Eshkeldiyeva Sabina Sherali qizi
Fayzullayeva Gulsanam
eshkeldiyevasabina@gmail.com
tel:+998 99 272 52 19

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash jarayonida milliy qadriyatlarning tutgan o'rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda xalq pedagogikasi, milliy urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va ularning bolalar shaxsini ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlarni tarbiyaviy jarayonga integratsiya qilishning pedagogik shart-sharoitlari, samarali metod va vositalari ko'rib chiqiladi. Maqolada milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan tarbiya bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik, o'z milliy o'zligini anglash va ijtimoiy moslashuv kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy asoslanadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiya, milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, urf-odat va an'analar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, bolalar tarbiyasi.

Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy,axloqiy, madaniy - ma'naviy, ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha

Insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar: yurt tinchligi, erkinlik, hurriyat, yaxshilik, ma'naviy boyliklar, an'analar, urf-odatlar milliy ko'ngilochar o'yinlar, saxiylik, odamshavandalik va bu kabilar qadriyat hisoblanadi. Yosh avlodni milliy - mafkuraviy kamol toptirishda uning ongida ijobiy fazilatlarni shakllanishiga yordam berish kerak.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, har bir davlatning barqaror taraqqiyoti hamda rivojlanishi inson omiliga, xususan, yosh avlodning ilmiy, ijodiy va ma'naviy salohiyatiga bog'liq. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi muammolari deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiy masaladir. Yoshlar tarbiyasi mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida shunday dedi: "Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olish. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz". O'zbek xalqining asriy an'analari, jumladan, tarbiya sohasidagi an'analari ajdodlarimizning tabarruk dini bilan bog'liq. Yoshi kattalarga salom berish, ularni hurmat qilish, yoshi kichiklar va kuchsizlarni avaylash, ilm olish va kasb o'rganishga da'vat, halol mehnat qilishga chaqirish, qo'shnilar bilan xushmuomala bo'lish kabi an'analar o'zbeklar oilalarida, ularning dinga munosabatlaridan qat'iy nazar, yoshlarga singdirib kelingan. Yoshlar tarbiyasida islom ma'rifatining muhim o'rnini e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2017–2018-yillarda qator g'oyalar va tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, Samarqand viloyatida Imom

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, Termizda Imom Termiziy ilmiy tadqiqot markazi va Toshkentda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil qilish to‘g‘risida davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari qabul qilindi.

Fikri mustaqil, barkamollikka intilayotgan shaxs sifatida o‘sib kelayotgan yosh avlodlarni vatanga muhabbat ruhida, ona yurtning qanchalar e’zoz va ehtiromga loyiq ekanligi haqida tushunchalar berib borish hozirgi zamonaviy yosh pedagog kadrlar uchun muhim, shu bilan birgalikda ustuvor vazifa sanaladi. O‘tmishda yashab o‘tgan buyuk tarixiy siymolarimiz jumladan, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Mirzo Ulug‘bek, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy,

Zahiriddin Muhammad Bobur kabi shaxslarni o‘z va bizgacha bo‘lgan zamonada milliy madaniy va ma’rifiy o‘gitlari dasturiamal bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa yangi jadidchilik davri taraqqiyotiga Munavvarqori Abdurashidxonov, ahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi mashhur siymolarimizning qo‘shgan hissalari beqiyosdir deya e’tirof etsak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Inson ham axloqan, ham ruhan pok bo‘lishi kerak. Bu xususiyatga ega bo‘lgan shaxs esa o‘tmish ajdodlarimiz kabi jamiyat ravnaqi, ma’rifat rivojiga o‘z hissasini qo‘sha oladi .Zero, insonda komillikning muhim mezoni yuksak axloqlilikdir.Shu o‘rinda buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniyning mashhur o‘gitlarini keltirsak maqsadga muvofiq : “Albatta, jamiyat ravnaqi, ma’rifatning rivojiga bog‘liq”. Zotan, milliy axloq - ma’naviy yuksaklikni ta’minlovchi vosita,Ibtidoiy davrlarda odamlar turlicha hayot kechirishganlar. Bu borada Abu Ali ibn Sino shunday deydi: “Modomiki , inson aloqaga muhtoj ekan , boshqa birov bilan qo‘shnichilik qilish uchun uning uyi yoniga uy soladi, o‘zining ehtiyojlarini qondirish uchun esa ishlab chiqarish mahsulotlarini almashtiradi, dushmanlardan saqlanish uchun o‘zgalar bilan birlashadilar.Mana shu tariqa kishilarda birlik hissi boshqalarga nisbatan sevgi muhabbat va umumiy - axloqiy negizlar ishlab chiqila boshlaydi”. Yuqorida takidlab o‘tganimizdek insonlarning bir jamoa bo‘lib birga yuksalishi , albatta, muhim hodisa sanaladi. Yillar davomida esa ongning taraqqiy etib borishi milliy - ma’naviy ehtiyojga borib taqaladi. Bu davrlar mobaynida ular ma’naviy

qadr hamda milliy insoniy odob fazilatlarini shakllantirib boradilar.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlarining milliy shakllarini rivojlantirish maktabgacha ta’lim tashkiloti oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardandir. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari – ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda tutilgan holda, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o‘zaro amaliy va nazariy muloqotida namoyon bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda uning mohiyatini tushunib yetish kerak. Qadriyatlar o‘zining mohiyatiga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yugi joyda biron narsaning qadr-qimmati haqida so‘zlash bema’nilikdir. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e’zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog‘lig‘ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlarning, islohotlarning archasi kishilar hayoti to‘q, boy, go‘zal bo‘lishi, inson o‘zini chinakam erkin his etishi, o‘z mehnati natijasining, o‘z taqdirining, o‘z mamlakatining egasi bo‘lishini ta’minlashga qaratilgandir.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yosh avlodlarimizga el-u yurt, xalq, millat va Vatan manfaatlarini anglash, ularning shon-shuhratini yanada oshirish, ilm-u fanni va madaniyatini, ajdodlarimiz boy merosini, tarixi, dini va qadriyatlarini o'rganish, munosib baholash borasidagi tarbiyachilarimizning faoliyatlari katta ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda, milliy-ma'naviy, etnik qadriyatlarni yoshlar ongiga samarali singdirishda maktabgacha ta'lim tashkilotida milliylik va milliy ma'naviy qadriyatlar uyg'unligi mavzusida olimlar, yozuvchi va shoirlarning hayoti va ijod yo'liga oid bo'lgan videofilmlarni qo'yib ko'rsatib borsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Vatanimiz milliy tarixi: " Har bir fuqaroni , jumladan , yoshlarimizning boy madaniy merosimizni qadrlashga , uni ko'z qorachig'idek asrab - avaylashga, yurak - yurakdan iftixor qilishga o'rgatadi. O'zimizning boy o'tmish merosimizdan madad va ibrat olishga imkon beradi. Odamlar qalbida ezgulik tuyg'ularini uyg'otib bugungi avlod kimlarning avlodi, kimlarning zoti va vorislari ekanini anglashga undaydi". Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi milliy ma'naviyat va ma'rifatdir. Ma'naviy barkamollikni tarbiyalashda vatan tarixi muhim omil sanaladi. "Ma'naviyat, - deb yozadi I. Karimov, - o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi".Aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda o'tmish ajdodlarimiz , ularning qilgan sa'y - harakatlari judayam qadrli hamda qimmatlidir. Shu jumladan boshlang'ich sinf o'quvchilarini og'zaki nutqini rivojlantirishda buyuk mutafakkirlarimizning fikrlari, ularning hikmatli so'zlari o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashining shakllantirish va og'zaki nutqini rivojlantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.Bundan tashqari o'quvchilarda O'zbek xalqiga xos qadriyatlarni saqlab qolishni eng avvalo ilk maktab yoshidan o'quvchilarga o'qtirib borish, jumladan, yigitlarning do'ppi kiyishlari - yu , qizlarjonlarning atlas ko'ylaklarda yurishi kerakligi haqidagi tasavvur va tushunchalar uyg'otish lozim.Ilg'or texnologiyalar va texnikalar davrida, yer yuzida ommaviy madaniyatning keng tus olishida inson ahlining o'rni kattadir.

Hayotimizning asosiy maqsadiga aylanib borayotgan zamonga va zamonaviylikka intilish kishilik jamiyati onggida milliy mafkurani qaysidir ma'noda qorong'u zulmatga yo'llaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, inson o'zligini shu bilan birga milliygini yo'qotmasa ko'zlangan maqsadga erishishi dushvor sanaladi. Ta'lim sohasining maxsus innovatorlari bu borada jamiyatning

barcha qatlamlari uchun fidoyilik bilan xizmat ko'rsatishga tayyordirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Azizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. — T., 2010.

2."Maktabgacha pedagogika"Sh. Sodikova. Toshkent — 2013.

3.Boboyeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish jarayonida ertaklar asosida atrof-muhit bilan tanishtirish // Ilmiy to'plam. — T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000. — 103–105-b.

4.Q.Usmonov , M . Sodiqov, S. Burxonova : O'zbekiston tarixi . Oliy o'quv yurtlarining barcha bakalavr yo'nalishlari uchun darslik. Qayta ishlangan ikkinchi nashr. - T. : "Iqtisod - Moliya. 2016

5.Allaberganova Y., Tursunova S. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH //Interpretation and researches. – 2023. – T. 2. – №. 1.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

6. Турсунова, С. И., & Чориева, Ҳ. (2023). МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШ ТАЛАБАЛАР УЧУН МУҲИМ ВАЗИФА. *Interpretation and researches*, *2*(1).

7. E'zoza, Q. (2024). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA'LIM OLUVCHILARNI O'QITISH BO'YICHA PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL QILISH YO'LLARI. *TADQIQOTLAR. UZ*, *35*(1), 144-151.

8.. Abzairov, T. Y., & Ibragimov, T. I. (2024). METHODS AND TECHNIQUES OF TEACHING RUSSIAN LANGUAGE. *Modern Scientific Research International Scientific Journal*, *2*(1), 71-84.

9. E'zoza, Q. (2024). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA'LIM OLUVCHILARNI O'QITISH BO'YICHA PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL QILISH YO'LLARI. *TADQIQOTLAR. UZ*, *35*(1), 144-151.

10. Bahodirovna, C. Z., & Tursunova, S. I. (2023). ON THE EXAMPLE OF RUSSIAN EXPERIENCE IN CREATING PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS. *International Journal of Pedagogics*, *3*(04), 1-11.